

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-----|
| Ш.М.Султонова, Н.Б.Усмонова | |
| Особенности формирования колористической медицинской терминологии (на примере русских, латинских, греческих и немецких названий болезней) | 453 |
| Sh.M.Sultonova, M.B.Otaboyeva | |
| Bilingv bolalar nutqidagi agrammatizmlarning psixolingvistik asoslari | 458 |
| G.X.Nurmatova | |
| korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning ilmiy-nazariy muammolari..... | 463 |
| Z.Sh.Pazilova | |
| O'zbek va Nemis xalqlarida to'ydan avval, to'y kuni va to'ydan keyin o'tkaziladigan urf-odatlar | 469 |
| Y.Sh.Shuxratova | |
| O'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar | 472 |
| M.E.Umarxo'jayev, N.F.Tursunova | |
| National-cultural semantics of phraseology: an exploration into the heart of idioms and expressions | 475 |
| N.R.Umarova, D.M.Xayitova | |
| Tilshunoslikda koloronimlar va ularning kognitiv talqini | 478 |

O'XSHATISH MUNOSABATINI IFODALOVCHI SINTAKTIK VOSITALAR
СИНТАКСИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ОТНОШЕНИЯ АНАЛОГИИ
SYNTACTIC MEANS OF EXPRESSING THE RELATION OF ANALOGY

Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi¹

¹Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi doktranti

Annotatsiya

1. Tadqiqot maqsadi: o'xshatish munosabatini shakllanishida leksik-morfologik vositalarning ahamiyati va vazifasini ochib berish, misollar bilan tahlil etish, sodda va qo'shma gaplarda ifodalanishini lisoniy dalillar yordamida ochib berish hamda o'xshatish munosabatining o'zbek tilshunosligidagi ahamiyati va rolini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. 2. Tadqiqot metodlari: mavzuni yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, zidlash, mazmuniy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. 3. Tadqiqot natijalari: o'xshatish munosabatini ifodalovchi vositalarning tizimli tadqiqi natijasida erishilgan xulosa va tahlillar tilshunoslikning bo'limlari bo'lgan sintaksis, morfologiya va matn tilshunosligida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar tahlili sifatida xizmat qilishi uchun asoslanadi. O'xshatish munosabati o'zbek tilshunosligida alohida obyekt sifatida tadqiq etildi, lingvistik vositalar turli sathlarda ifodalanishi o'rganildi, o'xshatish munosabatining nutqdagi ahamiyati, qo'llanilishi ilmiy jihatdan o'rganildi, o'xshatish munosabatini ifodalovchi lingvistik vositalar tasniflandi. 4. Xulosa: o'xshatish munosabati tilda affikslar, leksik birliklar, morfologik birliklar, sintaktik birliklar va matn birligi kabi lisoniy vositalar orqali voqelanadi. O'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari o'xshatish qurilmasida yangi so'z hosil qilish, qo'shimcha ma'noni berish, gap bo'lagi vazifasini bajarish kabi o'rinlarda faoliyat ko'rsatadi, o'xshatish subyekti va o'xshatish etaloni o'xshatishlarda vositalarsiz sintaktik yo'l bilan ham o'xshatish munosabatini ifodalaydi.

Аннотация

1. Цель исследования: выявить значение и роль лексико-морфологического средства в формировании отношения сравнения, проанализировать на примерах, с помощью лингвистических данных выявить его выражение в простых и сложных предложениях, а также теоретически проанализировать значение и роль сравнения в узбекском языкознании состоит в обосновании. 2. Методы исследования: для уточнения темы использовались такие методы, как описание, классификация, сравнение, противопоставление, предметный анализ. 3. Результаты исследования: выводы и анализы, полученные в результате систематического изучения средств выражения отношения сравнения, основаны на том, что они служат анализом научных исследований, проводимых в области синтаксиса, морфологии и лингвистики текста, которые являются факультетами языкознания. Отношение сравнения изучалось как отдельный объект в узбекском языкознании, изучалось выражение языковых средств на разных уровнях, научно изучалось значение и употребление отношения сравнения в речи, классифицировались языковые средства, выражающие отношение сравнения. 4. Вывод: связь аналогии реализуется в языке посредством таких языковых средств, как аффиксы, лексические единицы, морфологические единицы, синтаксические единицы и текстовая единица. Формальные показатели сравнения выполняют функцию в устройстве сравнения для создания нового слова, придания дополнительного значения, выполняют функцию предложения, предмета сравнения и эталона сравнения. синтаксический способ.

Abstract

1. The purpose of the research: to reveal the importance and role of lexical-morphological tools in the formation of the simile relationship, to analyze with examples, to reveal its expression in simple and compound sentences with the help of linguistic evidence, and to theoretically analyze the importance and role of the simile relationship in Uzbek linguistics consists of justification. 2. Research methods: methods such as description, classification, comparison, contrast, substantive analysis were used to clarify the topic. 3. Research results: the conclusions and analyzes obtained as a result of the systematic study of the means of expressing the relation of simile are based on the fact that they serve as an analysis of scientific research conducted in syntax, morphology and text linguistics, which are departments of linguistics. The relation of simile was studied as a separate object in Uzbek linguistics, the expression of linguistic means at different levels was studied, the importance and use of the relation of simile in speech was scientifically studied, the linguistic means expressing the relation of simile were classified. 4. Conclusion: the relationship of analogy is realized in the language through linguistic means such as affixes, lexical units, morphological units, syntactic units and text unit. The formal indicators of simile function in the device of simile to create a new word, give additional meaning, perform the function of a sentence, the subject of simile and the standard of simile. in similes, it expresses the relationship of simile without means in a syntactic way.

Kalit so'zlar: grammatika, sintaktik vosita, o'xshatish munosabati, sodda, qo'shma gap, predmet, leksik birlik, matn.

Ключевые слова: грамматика, синтаксический инструмент, сравнение, простое, сложное предложение, подлежащее, лексическая единица, текст.

Key words: grammar, syntactic tool, simile, simple, compound sentence, subject, lexical unit, text.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida o'xshatish munosabati bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, dastlabki olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili natijasida o'xshatish munosabatiga tarixan yondashilgan, bilish jarayonining eng muhim usullaridan biri, falsafiy-mantiqiy kategoriya ekanligi ko'rsatilgan. Keyinchalik tilshunoslikda strukturalizmning paydo bo'lishi o'xshatish munosabatini o'rganishning yangicha tus olishiga sabab bo'ldi. Shu tariqa o'xshatish munosabatini o'rganishga o'zgacha yondashuvda asosiy e'tibor uning semantik jarayonini o'rganish, uning vositalarini tahlil qilish va tadqiq etishga qaratildi. Undan tashqari, ushbu munosabatning bir necha unsurlardan tashkil topganligini aniqlash uning turli til birliklarida o'ziga xos tarzda ifodalanishini o'rganishga turtki bo'ldi. Xususan, o'xshatish munosabatining til sathlararo turli lisoniy vositalar yordamida ifodalanishi ularning o'ziga xos tizimga ega ekanligini aniqlashga va ularning o'ziga xos semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berishga zarurat tug'ildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tilshunoslikda o'xshatish munosabatining lisoniy jarayon sifatida tadqiq etilishi XVIII asrdan boshlanib, XIX asrda strukturalizmning vujudga kelishi sababli, bu masalaga qarash XX asrda yangicha tus olgan. Shu tarzda o'xshatish munosabatni shakllantiruvchi vositalar o'rganila boshlangan.

O'zbek tilidagi o'xshatishlar R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, B.Umurqulov, R.Suvonova, R.Rasulov, I.Umarov, I.Yormatov, M.Yoqubbekova, M.Yo'ldoshev va boshqa tilshunolar tomonidan turli darajada o'rganilgan

O'zbek tilshunosligida M.Mukarramov qiyoslash munosabatini o'xshatish atamasi bilan izohlaydi va o'xshatishda uch asosiy unsur ishtirok etishini aytadi. Ular:

- a) *o'xshatiluvchi obyekt-o'xshayotgan predmet;*
- b) *o'xshovchi obraz- o'xshayotgan predmet;*
- c) *o'xshatma belgi-o'xshovchi belgi. [1]*

M.Mukarramov o'xshatish belgisining muhimligini ta'kidlab, buningsiz qiyoslash jarayoning amalga oshmasligini aytadi. Aynan o'xshatish belgisiga ko'ra, o'xshatishning to'liq va to'liqsiz turlari belgilanadi. Agar o'xshatishni uch unsurli, xususan, o'xshatish belgisi leksik birliklar bilan ifodalansa, to'liq; agar o'xshatish belgisi leksik birliklar bilan ifodalanmay, o'xshovchi obraz ifodalangan so'zlarning ma'nosidan anglashilsa, to'liqsiz o'xshatish kabi turlarga bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu unsurlarning joylashuviga ko'ra ham, old va so'ng o'rinli o'xshatish kabi turlarini ham ko'rsatib o'tadi.[2]

N. Umarova o'zining ilmiy tadqiqotida "o'xshatish hamda uni shakllantiruvchi vositalar haqida to'xtalar ekan, u ham " o'xshatish munosabatini shakllantiruvchi unsurlar o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidan iborat ekanligini" ta'kidlab o'tadi.[3]

E.Begmatov, R.Qo'ng'urov Y.Tojiyevlarning "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari" nomli o'quv qo'llanmasida "narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik"ka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, aniqroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishi o'xshatish deyiladi. U, asosan nutqiy hodisa hisoblanadi", deb ta'kidlaydi va o'xshatishning uzvlari quyidagicha ko'rsatiladi:

- 1) *o'xshatilgan narsa;*
- 2) *o'xshatilayotgan narsa;*
- 3) *o'xshatish asosi belgi;*
- 4) *o'xshatish vositasi.[4]*

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, tilda o'xshatish munosabati o'xshatiluvchi obyektlarning (shaxs, narsa, belgi, miqdor, tarz (holat), harakat, voqea-hodisa) o'xshatish tavsifini voqealantiruvchi lisoniy vositalar majmuasi mavjud.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tilda o'xshatish munosabatini ifodalovchi lisoniy vositalar doirasi bir muncha keng bo'lib, ular bir butun tizimni tashkil etadi:

1. Leksik vositalar. 2. Morfologik vositalar. 3. Sintaktik vositalar.[5]

Bu vositalar o'xshatish konseptini voqelantiruvchi maxsus leksik-grammatik vositalar hisoblanadi. Ushbu maqolada sintaktik sathda ifodalangan o'xshatish munosabatiga to'xtalib o'tamiz.

O'xshatish munosabati ko'p qirrali va barcha tillarda mavjud universal kategoriya bo'lib, u turli sintaktik birliklar orqali ham ifodalanadi. Xususan, o'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar o'ziga xos mazmunga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, o'xshatilgan bo'laklar gap tarkibidagi biror predmet yoki hodisani, holat yoki harakatni, belgi, xususiyatni boshqa bir predmetning hodisasi, harakati, holatiga o'xshatish orqali ifodalaydi. Misollarga e'tibor beramiz:

Uning nolasi sahro bag'rida tomgan tomchi kabi samarasiz bo'ldi. (T.Malik "Hayot qayig'i").

U hamma qishloq bolalari kabi yoshlikdan mehnatga kirishgan bo'lsa-da, ammo o'yinga ham vaqt topar edi. (Oybek)

Keltirilgan misollarda o'xshatish ma'nosi kabi ko'makchisi orqali ifodalanib, gapda to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

Bir daraxtni ko'rdim - mag'rur, barkamol,

Istagan faslida gullaydiganday.

Pisandiga yaqin kelmas qor, shamol:

Durkun bargi mangu so'lmaydiganday. (I.Mirzo "Go'yo")

She'riy matnda o'xshatish - day affiksi orqali sodda gap tarkibidagi aniqlovchini ajratishga xizmat qilgan bo'lsa (mag'rur, barkamol, istagan faslida gullaydiganday), keyingi qatordagi bog'lovchisiz qo'shma gapda izohlash mazmunidan tashqari o'xshatish munosabatini ham ko'rish mumkin.[6]

Ko'k machitning naryog'ida, qaqroq cho'lda ko'k tayoqdek yakkayu yagona chorbog' bor. (A.Muxtor).

Ushbu gapda –dek affiksi yordamida o'xshatish munosabati ifodalangan. Gapda aniqlovchi vazifasida kelib, belgi va xususiyatni ifodalagan.

XULOSA

O'xshatish munosabati tilda affikslar, leksik birliklar, morfologik birliklar, sintaktik birliklar va matn birligi kabi lisoniy vositalar orqali voqelanadi. Tilshunoslikda olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilar ekanmiz, o'xshatish munosabatini sintaktik sathda o'rganilmaganini kuzatishimiz mumkin.

M. I. Cheremisina hali hamon bunday konstruksiyalarning sintaktik mohiyati yetarli darajada ochib berilmaganini qayd etadi. Shu munosabat bilan u bunday deb yozadi: «Tan olish kerakki, o'xshatish – bu sintaktik kategoriyadir va uning tadqiqi sintaksis doirasida olib borilishi lozim. O'xshatish tilshunoslikning shu bo'limi metodlari va usullari vositasida o'rganilishi, sintaksisning maxsus tili, ya'ni uning terminlari va tushunchalari asosida tavsiflanishi kerak».[7]

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 1976.-6-8b (1. Mukarramov M. Simile in the Uzbek language. - Tashkent: Science, 1976.-6-8p)
2. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 9-10b (2. Mukarramov M. Simile in the Uzbek language. - Tashkent: Fan, 9-10b)
3. Umarova N. Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi. Fil.fan.dokt.diss,Farg'ona, 2021. -B. 131.(1. Umarova N. Linguistic-conceptual study of Alisher Navoi's works. Ph.D. Diss., Fergana, 2021. -B. 131.)
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E, Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 99-bet.(4. Kongurov R., Begmatov E, Tajiyev Y. Fundamentals of speech culture and methodology. - Tashkent: Teacher, 1992. - p. 99.)
5. Yu.Shuxratova, A.Mamajonov. O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar. FarDU ilmiy xabarlar jurnali. 2022-yil 1- son. 195-bet (5. Yu. Shukhratova, A. Mamajonov. Morphological means of expressing simile. Journal of scientific news of FarDU. Issue 1 of 2022. Page 195)
6. Shuxratova Y.Sh. Qo'shma gaplarda o'xshatish va qiyos munosabati. "Экономика и социум" №5(84) ч.1 2021 (Shukhratova Y.Sh. Simile and comparison relationship in compound sentences. "Economics and society" #5(84) ch.1 2021)
7. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent: Ma'naviyat, 2013-yil, 8-bet (N. Mahmudov, D. Khudoyberganova. Explanatory dictionary of Uzbek language similes. Tashkent: Spirituality, 2013, p. 8)